

Qashqadaryo viloyatida chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2025- yil yanvar-may dastlabki ma'lumot

- I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI
- II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI
- III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI
- IV. METAMA'LUMOTLAR
- V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR


I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

2025- yil 1-iyun holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 6 524 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 21 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 6 503 tani tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-may oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 10 274,3 mlrd. so'mni tashkil etib, 2024- yilning yanvar-may oylariga nisbatan 108,0 % ga yetdi.


Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 516,9 mlrd. so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 109,3 %), kichik biznes va xususiy tadbirdorlik subyektlarining tovar aylanmasi 8 366,9 mlrd. so'm (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,2 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 390,5 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 112,0 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (% da)



Mavzuga doir havola: [Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(oylik\)](#)

Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (ulushi foizda)



■ Yirik korxonalar ■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ■ Uyushmagan savdo

II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2025- yil 1-iyun holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 2 192 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 15 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 2 177 tani tashkil qildi.

Qashqadaryo viloyati bo'yicha 2025- yilning yanvar-may oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 3 233,9 mlrd. so'mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 5,8 % ga o'sdi.

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 2 918,2 mlrd. so'mni tashkil qilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,8 % ga to'g'ri keldi. Viloyatda jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi 90,2 % ni tashkil qildi.

Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd. so'm)




Mavzuga doir havola: [Ulgurji savdo hajmi \(oylik\)](#)

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hudud Kasbi (2,4 m.) tumanida kuzatildi.



Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)




Mavzuga doir havola: [Ulgurji savdo hajmi o'sish sur'ati \(oylik\)](#)

III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2025- yil 1-iyun holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 1 609 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 4 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 1 381 tani tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-may oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 7 436,9 mlrd. so'mga yetdi. 2024- yilning mos davriga nisbatan 111,9 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 89,9 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

Umumi ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)**IV. METAMA'LUMOTLAR**

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi, 2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuvi va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlatalidi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.

V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR

[Ulgurji savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ulgurji savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Chakana savdo aylanmasi hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ovgatlanish korxonalari savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ovgatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)



Chiqarish uchun javobgar:

Xizmatlar va savdo sohasi statistikasi bo'limi

Manzil: 180100, Qashqaryo viloyati, Mustaqillik

ko'chasi, 2 B-uy **Pochta:** gashstat@umail.uz

Tel.: 75-221-44-28